

UDK 91

Alijonova Gulxayo Adiljon qizi, magistrant

Alijonova Gulxayo Adiljon qizi, master student

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

O‘zbekiston, Toshkent

O‘ZBEK GEOGRAFIK TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya: Maqolada “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi geografik terminlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Terminologik lug‘at, pometa, dyuna(lar), terrasa, qomuslar, galereya, eskirgan va dialektal birlik, laguna, marsh, cho‘qo‘lak.

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF UZBEK GEOGRAPHICAL TERMS

Annotation: The article gives an idea of the geographical terms in the "Explanatory Dictionary of the Uzbek language".

Keywords: terminological dictionary, pometa, dyuna(s), terrace, whips, Galerie, obsolete and dialectal unit, laguna, marsh, peak.

Termin chegaralangan leksik qatlamga mansub lug‘aviy birlik sifatida terminologik tadqiqotlarning asosiy obyekti, terminologik lug‘atlar yaratishning muhim manbai hisoblanadi.[2:56] 2006-2008–yillarda nashr etilgan 5 jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga hozirgi o‘zbek adabiy tilida keng iste’molda bo‘lgan 80 mingdan ortiq so‘z va so‘z birikmalarini, fan, texnika, san’at va madaniyat sohalariga oid terminlarni, bir necha shevada qo‘llanadigan so‘zlarni, ba’zi tarixiy va eskirgan atamalarni o‘z ichiga oladi.[3:3] “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (keyingi o‘rinlarda O‘TIL) dan tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan geografiya sohasiga oid 400 ga yaqin termin tanlab olindi. “O‘TIL”dagi berilgan geografik terminlarni soha darajasiga ko‘ra 3 guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Geografiyada ham, umumiste’mol qatlam tarkibida ham qo‘llanuvchi terminlar: bulut, bo‘ron, vodiy, girdob, daryo, dashtlik, dovon va shu kabilar.

2. Faqat geografiya sohasida qoʻllanuvchi terminlar: tayga, tayfun, massiv, aysberg, landshaft, briz, liman, fyon va shu kabilar.

3. Geografiyada ham, boshqa sohalarda ham qoʻllanuvchi terminlar: bukilma, tekislik, izobara, parallel, poyas, punkt, poʻst, sirt, qutb va shu kabilar

Mazkur lugʻatda koʻplab geografiyaga oid terminlar oʻrin olgan boʻlsa-da, salmoqli qismiga terminologik sohaga mansublikni bildiruvchi leksikografik belgi (pometa) qoʻyilmagan. Buning yana bir sababi izohli lugʻatlarni tuzuvchi leksikograflar esa terminga birinchi navbatda soʻz sifatida qarab, uni soʻzga xos umumiy lisoniy belgilarni hisobga olgan holda izohlaydilar va izohda terminning mutaxassis tomonidan tayin qilingan barcha belgilarini emas, balki uning eng muhim eng asosiy bir-ikki belgisini aks ettirish bilan kifoyalanadilar.[1:57] Biroq "OʻTIL"da berilgan quyidagi geografik terminlarga sohaga oidlikni ifodalash uchun shartli belgi (*geogr.* qisqartmasi) qoʻyilishi kerak degan fikrdamiz:

BRIZ [*fr.* brise - shabada] Dengizlar, katta koʻllar, baʼzan yirik daryolar sohilida esadigan, kecha-kunduzda davriy oʻzgarib turadigan shamol, shabada.

DYUNA(LAR) [*nem.* dune] Shamol taʼsirida hosil boʻladigan (toʻplanadigan) va uzluksiz siljib turadigan qum tepalari.

GAVAN [*goll.* haven] Dengiz va daryolarda suv sathining toʻlqin, shamol va suv oqimlaridan sunʼiy yoki tabiiy himoyalangan, kemalar turadigan va taʼmirlanadigan qirgʻoq qismi.

MASSIV [*fr.* massif - ogʻir vaznli < *lot.* massa — boʻlak, parcha] **1** Togʻlik, choʻl va sh. k. joylardagi tekis, yaxlit qismlar.

SAVANNA [*isp.* sabana < *indeys tillaridan*] Afrika, Janubiy Amerika, Shi-moli-Sharqiy Avstraliya va Janubiy Osiyoda: oʻsimliklarning tropik oʻrmonlar va saxrolar oraligʻida tarqalgan mintaqaviy tipi; unda baland, boʻliq oʻtlar orasida hakkam-dukkam yoki toʻp-toʻp daraxtlar hamda butalar oʻsadi.

SAYOZLIK 1 Soy, koʻl, ariq, daryo kabi suv havzalarining suvi kamayib, tagi yuzaroq boʻlib qolishi.

TAYGA [*r. tayga < t. oltoy tayg'a - qoyali tog'*] Osiyo, Yevropa va Amerikaning shimolidagi qalin o'rmon zonasi.

TERRASA [*fr. terrasse < lot. terra - yer, zamin*] Tog' yonbag'irlaridagi zinapoyasimon bo'lib tushgan tabiiy yoki sun'iy tekis sahn, maydoncha.

TOSHQIN Qor va muzliklarning shiddatli erishi, yog'inning ko'p bo'lishi, tabiiy va sun'iy to'g'on va dambalarni suv vayron qilishi va b. sabablar tufayli daryo, soy, ko'l suvlarining qirg'oqdan oshib, sohil, yerlarni bosuvi.

Bugungi kunda o'zbek tili geografik terminlarining izohli lug'atini yaratish –dolzarb masala. Bu masalani muvaffaqiyatli hal etish leksikografik an'analarga tayanish bilan bir qatorda lug'atga so'z tanlash, uni izohlashning mukammal modelini ishlab chiqishni taqozo qiladi. Quyida geografiyaga oid terminlar izohli lug'atini yaratishga doir tavsiyalarimizni bayon etamiz.

“O'zbek tili geografik terminlarining izohli lug'ati”ni yaratishda dastlab shu sohaga tegishli eng faol so'zlardan iborat qisqacha izohli lug'atini tuzish lozim. So'ngra lug'atdagi so'zlikni kengaytirish asosida o'zbek tilidagi geografiya sohasiga oid barcha terminlarni tartibga solish maqsadga muvofiq. Ularni quyidagicha guruhlash mumkin: a) O'zbek tilida yaratilgan geografiya sohasiga doir terminlar lug'ati, ma'lumotnoma va qomuslar; b) O'zbek tilining izohli lug'atlari; d) Boshqa xorijiy tillar (arab, fors-tojik, rus, ingliz...)da yaratilgan geografiya sohasiga doir ma'lumotnoma va qomuslar; e) Boshqa xorijiy tillar (arab, fors-tojik, rus, ingliz...)da yaratilgan geografik terminlarining izohli lug'atlari; f) O'zbek va boshqa tillarda chop etilgan geografiya sohasiga doir darslik va qo'llanmalar, o'quv-metodik majmualar.

“O'zbek tili geografik terminlarining izohli lug'ati”dan leksema, so'zshakl va birikma shaklidagi terminlardan iborat lug'at maqolalari o'rin oladi. Terminlar an'anaviy tarzda alifbo tartibida beriladi. Geografiya sohasiga oid terminlarning ma'nolarini izohlashda leksikografik an'analardan unumli foydalanish maqsadga muvofiq. “O'zbek tili geografik terminlarining izohli lug'ati”ning lug'at so'zligidan o'z va o'zlashgan qatlamga oid terminlar o'rin

oladi. Shuning uchun lug‘at yaratishda biz ularning hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llaniladigan va kishilar nutqida hozirgacha saqlanib qolganlarinigina kiritishni maqsad qilganmiz.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ga kirmagan kelgusida yaratiladigan “O‘zbek tilining geografik terminlarining izohli lug‘ati”ga kiritilishi lozim bo‘lgan ayrim terminlar ifodasini taklif sifatida taqdim etmoqchimiz:

ALP [*ing.*] Tik yonbag‘irlar ustidagi qiya shaklda muzlagan cho‘qqi.

BO‘RTIQ – Relefning kichik musbat (ko‘tarilib turgan) shakli, tepa, do‘ng, qoya va hokazo

GORST [*nem. orst – do‘nglik, balandlik*] Yer po‘stining uzilmalar bo‘yicha yuqoriga ko‘tarilgan qismi.

FORD [*ing.*] dengizlarning qirg‘oqlari tik, ko‘pincha qoyalari tor, chuqur qo‘ltiqlari

LAGUNA [*ital. lacus – ko‘l*] 1 To‘lqin keltirgan qum marzalari orqali dengizdan ajralib qolgan yoki kambar quruqlik bilan dengizdan ajralgan sayoz tabiiy suv havzasi.

KAMPOSLAR [*por. kampo – dala, tekislik*] Yassi tog‘lardagi savannalar nomi

KANYON [*ing. canon*] Daryoning uzoq muddatli vaqt davomida ob-havo va eroziv faolligi natijasida yuzaga keladigan qoyalar va cho‘qqilar orasidagi chuqur yoriq yoki ikki tog‘ cho‘qqisi orasidagi yoriq.

KOL – [*ing. col*] Ikki cho‘qqi orasidagi tog‘ tizmasining eng past nuqtasi.

KRATER [*yun. krateros – katta tovoq*] Yer yuzasida yoki dengiz ostida uchraydigan tovoqsimon yoki voronkasimon chuqurliklar.

KRYAJ – uzun cho‘zilgan va tepalari yassi gumbazsimon qirlar.

MARSH – [*ing.*] Ko‘pincha ko‘llar va daryolar qirg‘og‘ida joylashgan, ustini suv o‘tlari bosgan botqoq yer.

MORENA [*fr. moraine*] Muzliklar erib chekingandan keyin qolgan tog‘ jinslari uyumi.

PALAXSA – Yer po‘stining, tektonik yoriqlar bilan ajralib, ko‘tarilib qolishdan hosil bo‘lgan tog‘

SAYROB – tog‘larning havo harakati ta‘sirida yomg‘ir ko‘p tushadigan, sersuv joy, vodiya boshi

SAKRAMA – Daryoning tor, teroqar qismi, shalola

SANGIR – Tog‘larda tik kesilib tushgan jarlik, daryoning qulash natijasida hosil bo‘lgan tik qirg‘og‘i

SIRK – [*lot.* kirkus - doira] Tog‘larda bir tomoni ochiq qozonsimon relef shakli.

TROG [*nem.* trog – tog‘ora] muzlik o‘yib o‘zgartirgan tog‘orasimon tog‘ vodiysi

UVAL – yonbag‘irlari bilinar-bilinmas qiya, uzun cho‘zilib ketgan qirlar

SHUG‘A – kuzda, qishda suv muzlashi oldidan suvda oqadigan g‘ovak muz parchalari

SHELF – dunyo okeani tubining qirg‘oqqa yaqin qismi.

CHO‘QO‘LAK Cho‘llarda bo‘ta, o‘tlar atrofida to‘planadigan qum do‘ngchasi.

Anglashiladiki, lug‘at yaratish murakkab jarayon bo‘lib, lug‘at uchun lug‘aviy birliklarning miqdorini aniqlab olish, uning tipi, yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash lug‘atchilik jamoasi uchun muhim vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Madvaliyev A. Izohli lug‘atda terminlarning leksikografik talqiniga doir. “O‘zbek tili va adabiyoti”. 2009. – 1-son, – B. 57.
2. Madvaliyev A. Termin-terminologik lug‘at-izohli lug‘at. “O‘zbek tili va adabiyoti”. 2008. – 6-son, – B. 56.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. V jildli. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. 1-jild. Tuzatilgan 2-nashri. –B.3.